

XXI ASR O‘ZBEK NASRI, DRAMALARIDA INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI FOJIALARNING IFODALANISHI

Narzullayeva Sevara Nodirbek qizi

CHDPU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20438885>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada XXI asr o‘zbek nasri va dramatik adabiyotida inson hamda jamiyat hayotidagi fojiviylikning badiiy ifodalanishi tahlil qilinadi. Mustaqillikdan keyingi davrda o‘zbek adabiyotida yuzaga kelgan yangilanish jarayonlari, milliy ong va tarixiy xotiraning tiklanishi nasr va dramaturgiyada yangi badiiy tamoyillarni shakllantirgani yoritiladi. Hikoya, qissa, roman va dramatik asarlarda psixologizm, mistik realizm, modernizm, postmodernizm hamda ijtimoiy-realistik yo‘nalishlarning rivojlanishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: XXI asr o‘zbek adabiyoti, nasr, dramaturgiya, fojiviylik, dramatism, psixologizm, mistik realizm, modernizm, postmodernizm, katarsis, ichki monolog, gipertekst, polifonik matn, ijtimoiy realizm.

THE EXPRESSION OF TRAGEDIES IN HUMAN AND SOCIAL LIFE IN 21st- CENTURY UZBEK PROSE AND DRAMA

Narzullayeva Sevara Nodirbek qizi

Master’s Student of CHDPU

ABSTRACT: This article analyzes the artistic expression of tragedy in human and social life in 21st-century Uzbek prose and dramatic literature. It highlights the processes of renewal that emerged in Uzbek literature after independence, as well as the restoration of national consciousness and historical memory, which contributed to the formation of new artistic principles in prose and dramaturgy. The article also scientifically examines the development of psychologism, mystical realism, modernism, postmodernism, and socio-realistic trends in short stories, novellas, novels, and dramatic works.

KEYWORDS: 21st-century Uzbek literature, prose, dramaturgy, tragedy, dramatism, psychologism, mystical realism, modernism, postmodernism, catharsis, inner monologue, hypertext, polyphonic text, social realism.

Kirish. XXI asrda o‘zbek adabiyoti adabiy jihatdan yangilanishning uslubiy tamoyillari asosida qayta tug‘ilish va izlanish davrlarini boshidan kechirdi. Mustaqillik yillarida shakllana boshlagan milliy tushunchalar, milliy ong, o‘zlikni anglash, tarixiy haqiqatlarni tiklash kabi tushunchalar 2000-yillardan boshlab badiiy hayotda, badiiy matnda yanada chuqurroq aks eta boshladi. Bunda 2000-yildan bugungi kunga qadar o‘zbek adabiyotida nasr, drama, doston va boshqa janrlarning kategoriyalar asosida shakllanishi rivojlandi. Nasriy yo‘nalishdagi asarlar orasida dastlab hikoyalar, qissalar, romanlarning mini shaklda rivojlanishi, psixologik nasrning taraqqiyot bosqichlari, sarguzasht va detektiv yo‘nalishdagi nasriy asarlar, mistik-falsafiy hamda ijtimoiylikka asoslangan asarlarning realistik xususiyatlar va yangi tajribalar, yangi shakl va kommunikatsiyalar bilan uyg‘unlashuvi kechdi. Dramatik janrlar vositasida tragediya, drama, sahna kompozitsiyasi, fojiviylik tushunchalari rivojlandi. Shu bilan birga, dostonlarning zamonaviy epik xususiyatlari ham takomillashdi. Bunda komparativ tahlilning fojiviylik va psixoanalitik tarzda rivojlanishi janr poetikasi bilan asosiy konseptual birlikni tashkil etadi.

Asosiy qism. Hikoya janrida Xurshid Davronning she‘riyatdagi tajribasi hamda nasriy izlanishlari o‘zbek zamonaviy adabiyotida hikoyachilik rivojiga hissa qo‘shgan. Aynan uning

hikoyalari kichik bir jamiyatni alohida qatlam sifatida ulug'lash orqali ulkan tizim ichidagi ziddiyat, ifodaviylik va turli nostalgik xususiyatlarni rivojlantirishga yordam berdi. Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari esa ayol ruhiyati va teran ifodaviy tasvir ko'zga tashlanadi. Shu bilan birgalikda, O'zbekiston hududida yashovchi insonlarning zamonaviyligi, modernistik ruh bilan shakllangan tarbiya uyg'unligi, feministik nasrning ilk namunalari aynan uning ijodida yaqqol namoyon bo'ladi. *“Oydin kechalar”* deb nomlanuvchi hikoyalar fojiviylik, chegara va o'tkir psixologik tasvir mahoratining markazida turuvchi vositalardan biridir. Hamid Ismoilovning asarlari ham ikki madaniyat o'rtasidagi chegaraga asoslangan asarlar hisoblanadi. Britaniya va o'zbek madaniyatini bog'lovchi ko'prik sifatidagi ijodiy faoliyat qarama-qarshiliklarni, ba'zi o'rinlarda esa fojiviylikning tasvir mahoratini ifodalashi bilan ajralib turadi. *“Bog”* va boshqa qisqa nasriy asarlari makon chegaralari hamda zamon bilan bevosita aloqadordir. Isajon Sultonning asarlarida ruhiy-psixologik holatlar va ichki izlanish tamoyillari mavjud. Unda inson ruhiyatidagi bo'shliq, jamiyatdagi ma'naviy holatlar, inqiroz motivi kabi tushunchalar qalamga olinadi.

*“O'zbek adabiyotida XXI asrdan boshlab qissa janriga bo'lgan e'tibor kuchaya boshladi. Qissa janrining hajman epik asarga yaqinligi, bir necha hikoya kattaligiga teng bo'lishi haqidagi tushunchalar endilikda psixologizm, zamonga xos ijtimoiy model, muammolar va ichki monolog bilan ifodalana boshladi”*¹. Nazar Eshonqul hikoyalari mistik tuyg'ular va ruhiy tushunchalar bevosita qorishib ketadi. Ba'zi o'rinlarda folklor va xalq og'zaki ijodi unsurlarining hikoyalarda katta rol o'ynashi mif va afsonalarning psixologik muammolar bilan aloqadorligini yuzaga keltiruvchi ko'prik vazifasini bajaradi. Shuningdek, *“Ko'hna dunyo afsonalari”* deb nomlanuvchi qissa bunga yaqqol misol bo'la oladi. Aynan bu davrlarda qahramonning ikki dunyo o'rtasidagi moddiy va ma'naviy-metafizik holatlari ham qalamga olingan. Shoyim Bo'tayevning ijodiy mahorati qissachilikda ijtimoiy drammatizmni rivojlantirishga xizmat qilgan. Bunda insonlarning hayot tarzi, uning og'irligi va yengilligi realistik tasvir uslublari orqali yoritilgan. Katarsis, ya'ni yunoncha ruhiy tozalanish effekti aynan Shoyim Bo'tayev yaratgan qahramonlar xususiyatida ko'zga tashlanadi. O'lmas Umarbekov yaratgan asarlar ham o'z davrining muhim jihatlari ochib bergan.

Epik asarlarda esa romanlarning turli namunalari yaratildi. Aynan shu davrlarda *“Boqiy darbadar”* romanida Sharq va G'arb hayotidagi izlanishlar, haq va haqsizlik, fojiviylik hamda drammatizm asosidagi tushunchalar ifodalangan. Muhammad Alining tarixiy romanlari ham aynan ushbu davrlarda rivojlana bordi. Bunga sabab mustaqillik yillaridan, ya'ni 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda tarixiy xotirani tiklash va tarixiy tushunchalarni ulug'lashga oid qarashlarning o'z ifodasini topayotgani edi. Psixologik jihatdan rivojlanayotgan nasrda Hamid Ismoilovning *“O'zbek”* deb nomlanuvchi romanida London va Toshkent o'rtasidagi kontekst vositasi yaratilgan. Bunda *“Mast va xushyor”* kabi asarlar ham globalikka asoslangan ruhiy-psixologik tasvirlarni ifodalagan asarlar sifatida qaraladi. Bu diaspora tragediyasi, ya'ni ikki madaniyat o'rtasidagi qarama-qarshilik va ifodaviyliklarni aks ettiradi. Nazar Eshonqulning *“Labirint”* deb nomlanuvchi asari 2010-yillarda o'zbek nasrida ong oqimi, ya'ni texnik taraqqiyot bilan bog'liq insonlar hayotidagi ichki kechinmalar, qahramon nutqi va ichki monologning drammatizm bilan bog'liqligi borasidagi modernistik texnikaga asoslangan asarlardan biri hisoblanadi.

Mistik va falsafiy nasrning rivojlanishida bu ijodkorlar qahramonlarni islom tasavvuri va zamonaviy ontologiya asosida shakllanayotgan jamiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik orqali tasvirlaydi. Nazar Eshonqulning mistik realizm uslubidagi asarlari zamonaviy psixologizm bilan

¹ Quronov, D. (2019). *Adabiyot nazariyasi asoslari*, Toshkent: Noshir.

bog‘liqlikni tashkil etadi. Bunda *dev, pari, arvo*h kabi tushunchalar ramziy va ifodaviy realizm asosida talqin etilishi haqidagi qarashlar ham mavjud edi.

“*Ijtimoiy-realistik asarlarda qishloq hayotining fojiaiy tasviri, zamondan orqada qolayotgan insonlar va ularga nisbatan tushuntirish hamda urg‘u berish kabi tushunchalar ko‘zga tashlanadi*”². Tog‘ay Murod asarlarining davomiylik xususiyati, uning yo‘nalishi va uslubi keyinchalik ham xalq tili, ritmi va obrazlilik bilan ajralib turdi.

Sarguzasht va detektiv romanlar ham XXI asrdan boshlab anchayin rivojlandi. Bunda tanqidiy yondashuv va psixologik portretlar yaratish, konfliktli holatlar orqali asar kompozitsiyasini rivojlantirish katta rol o‘ynaydi. Ulug‘bek Hamdamning zamonaviy detektiv proza asosida yaratgan asarlari mavjud bo‘lib, ba‘zi o‘rinlarda uning sarguzasht ruhidagi romanlari ham uchraydi.

Ulug‘bek Hamdam o‘zbek adabiyotidagi intellektual nasrda jinoyat va jazo, inson tabiati, yovuzlik va ezgulik kabi tushunchalarni ifodalagan ijodkorlardan biridir. Uning 2019-yilda nashr etilgan “*Ota*” romanida ayni holatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sarguzasht romanlarda esa geopolitik va ijtimoiy fonning Markaziy Osiyo geografiyasi bilan bog‘liqligi, Ipak yo‘lining qadimiylik xususiyati va savdo munosabatlari, tez rivojlanayotgan davlatlar hamda jamiyatlarning inson taqdiri bilan uyg‘unlashuvi fojiaiy va dramatik bosim orqali ifodalangan.

Bu davrda turli xil tajribalar ham amalga oshirildi. “*O‘zbek adabiyotida gipertekst fragmentlariga asoslangan romanlar, multimedia nasri va tajribaga asoslangan miniromanlar, fragmentar romanlar ko‘zga tashlana boshladi. Ijtimoiy hayot muammolarining romanlar tarkibida ochib berilishi va izohlanishi haqiqiy roman shakliga xos xususiyatdir*”³. Shakliy eksperimentlarning Hamid Ismoilov kabi ijodkorlar asarlarida ochib berilishi, muallifning an‘anaviy hikoyaviylik va zamonaviylik xususiyatlarini uyg‘unlashtirishida polifonik matnlar katta rol o‘ynaydi. Ayniqsa, “*Jinlar bazmi*” asari postmodern texnikalar va o‘zbek madaniyatining qorishiq namunasi ekanligi bilan xarakterlidir.

Yosh yozuvchilar keyinchalik qisqa proza yaratishda *flash fiction* va *blog-romanlar* yozishda an‘anaviy maktab tajribalarini o‘rgana boshladilar. Yoshlar muammosi, raqamli sivilizatsiya, urban hayot kabi tushunchalar romanlarga kirib bordi. Ushbu holatlar ayniqsa 2010-yillarda yaqqol ko‘zga tashlandi.

Zamonaviy dostonlarning nasriy, epik hamda she‘riy tarzda ifodalanishi ham kuzatiladi. Tarixiy va mifologik ruhdagi asarlar mavjud edi. Abdulla Oripov asarlarida milliy tarix va ma‘naviyatning rivojlanishi, Erkin Vohidov asarlarida esa milliy tushunchalarning zamonaviy insonlar taqdiri va talqinida ifodalanishi milliy xarakter, milliy g‘urur va milliy tuyg‘u kabi tushunchalar bilan bog‘liqlikni tashkil etadi. Shams Ali, Xudoyberdiyev kabi ijodkorlar asarlarida esa shahar hayoti, ijtimoiy hayotdagi axborot texnologiyalari, ekologik muammolar va turli epik tasvirlarga asoslangan tushunchalar mavjud edi.

Fojiaiylikning ifodalanishi keng miqyosda umuminsoniylikka xavf tug‘diruvchi hodisalar bilan bog‘liqdir. 2019-yildan boshlangan COVID-19 masalasi o‘zbek adabiyotida dramatismga urg‘u qaratish va shunday holatlarni qalamga olish zarurligini yana bir bor eslatdi. Epik tragizm tushunchasi individual tarzda yashayotgan insonlar hayotining umumiy va ideallikka asoslangan fojiaiy holatlar bilan qo‘shilib ifodalanishidir.

² Qozixojayev A. Qissa janri xususida. XX asr o‘zbek adabiyoti masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami). –T.: “Fan” nashriyoti. 2012. –B. 23.

³ Rahmanov, N. (2017). O‘zbekiston adabiyoti tarixi, Toshkent: Sano standart

Fojiaviylikning bir necha jihatlari ahamiyatlidir. Bunda asarda ifodalanayotgan obrazlar taqdirining turli fojiaviy yo'llar orqali ochib berilishi kuzatiladi. Katarsis tushunchasi esa tomoshabinlarning psixologik va ongiy jihatdan o'z-o'zini mukammallashtirishga intilishi, fojiaviy syujetni tomosha qilish oqibatida yuzaga keladigan emotsional ozodlik kabi tushunchalarning ong ostiga ta'sir o'tkazishi bilan ahamiyatlidir. *“Qahramonning ramziylik va turli parodiyalar orqali haqiqatni anglash lahzasi ko'pincha fojining eng dramatik nuqtasida amalga oshiriladi. Bunda peripetiya tushunchasi taqdirning keskin o'zgarishi, qahramonlarning to'satdan yaxshi yoki yomon holatlarga tushib qolishi bilan o'zbek asarlarida yaqqol ifodalangan”*⁴. O'zbek adabiyotida XXI asrdan bugungi kungacha fojiaviylik qahramonlarning haddan tashqari kibr-havoga berilishi va shu tasvirlarning adabiyotga kirib kelishi bilan ham bog'liqdir.

Dramatik asarlar yaratishda Shekspir mahoratiga tayanish bugungi o'zbek adabiyotida ham ayrim yozuvchilar ijodida uchraydi. Bunda Suqrot tipi, Lir tipi, Gamlet tipi, Medeya tipi va Orol fojiasi bilan bog'liq asarlar mavjud edi. Ba'zi holatlarda haqiqat uchun o'z jonini qurbon qiluvchi qahramonlarni yaratish tiplashtirish vazifasiga aylangan. Keksayish va o'g'il-qizlar xiyonatining fojiaviy tasvirlari ayrim oilaviy dramalarda ko'zga tashlanadi. Haqiqat uchun kurashayotgan insonlar tipi ko'proq Ulug'bek Hamdam asarlarida va dramalarida uchraydi. Gamlet tipida esa inson ongidagi ziddiyat va real harakat o'rtasidagi munosabat siyosiy voqealarni ifodalovchi asarlarda ko'proq namoyon bo'lgan. Medeya tipi, ya'ni jamiyatda o'z o'rniga erisha olmagan ayollar fojiasi, sevgi va intiqom o'rtasida azob chekayotgan obrazlarning tasviri zamonaviy gender tengligi bilan bog'liq qarashlarda aks etgan. Orol fojiasining inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq shakllanishi ekologik asarlarda ekologik tafakkurning singdirilishi bilan aloqador holda namoyon bo'lgan.

Janrlararo sintez va o'zaro ta'sir bu davrda hikoyachilik hamda dramatik birliklarning, ya'ni sahna va yozuvchi uslubining uyg'unlashuvi orqali kuzatilgan. Romanlar dramatik sahna ko'rinishiga asoslanib, bo'limlarning nasriy ifodasi bilan boyitildi. 2010–2020-yillarda jamiyat tizimidan ko'ra insonlarning ichki dunyosi, ichki qarashlari va ruhiy azoblari ko'proq tasvirlandi. 2020–2026-yillarda esa pandemiya, ya'ni COVID-19 va raqamli sivilizatsiyaning o'zbek adabiyotida aks etishi bilan bog'liq tushunchalar yuzaga chiqdi. 2000-yildan 2010-yillargacha bo'lgan davrda esa mustaqillik yillaridagi adabiyot shakllarining ildizlari, murakkabliklari va realistik uslublar ustuvorligi ifodaviylikda ko'zga tashlanib turdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bu davrlarda adabiy-tanqidiy baholar va muammolarning nashriyotlar bilan bog'liqligi, sifatli asarlarning keng ko'lamda taqdim etilishi va kitobxonlarga yetib borishi muhim masalalardan biri edi. Yozuvchi va shoirlarning yosh avlod bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi ham ahamiyatli deb hisoblandi. Senzura va ijodiy erkinlik esa nozik mavzularning cheklovlar bilan bog'liqligini ifodaladi. Tanqidchilik taraqqiyoti ilmiy hamda amaliy adabiy maktablarning rivojlanishiga yordam berdi. Bu davrlarda kitobxonlarning yozuvchilar bilan hamkorlikda ishlashi, medialardan unumli foydalanish, podkastlar, audiokitoblar va raqamli platformalar orqali kitobxonlik madaniyatini oshirish, adabiyot hamda kino-teatr tushunchalarini birlashtirish kabi g'oyalar ilgari surildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Quronov, D. (2019). Adabiyot nazariyasi asoslari, Toshkent: Noshir.
2. Rahmanov, N. (2017). O'zbekiston adabiyoti tarixi, Toshkent: Sano standart

⁴ Hamroyeva D. Obraz, timsol, ramz// “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali. –Toshkent: 2008. 4-son. –B. 73.

3. Hamroyeva D. Obraz, timsol, ramz // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. –Toshkent: 2008. 4-son. –B. 73.
4. Qozixo‘jayev A. Qissa janri xususida. XX asr o‘zbek adabiyoti masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami). –T.: “Fan” nashriyoti. 2012. –B. 23.